

AN‘ANAVIY IJROCHILIK IJROCHILIKDA DUTOR CHOLG‘USINING O‘RNI VA AHAMIYATI

Saodat Murtazaevna Davronova

8-sonli Bolalar Musiqa va San‘at maktabi Dutor sinfi o‘qituvchisi.

Annotatsiya

Ushbu maqolada an‘anaviy dutor cholg‘usining musiqa va san‘at maktablarida metodik qo‘llanishi, kasbiy mahorati va ularning shakllanishi omillari, ilmiy qo‘llanishi va pedagogik tajriba, ta‘lim, tarbiya va kasbiy mahoratto‘g‘risida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar

Xorazm maqomlari, an‘anaviy cholg‘u, musiqiy meros, madaniy meros,

Аннотация

В данной статье рассматриваются методическое развитие традиционного музыкального инструмента в музыкальных и художественных школах, профессиональные навыки и факторы их формирования, научная подготовка и опыт обучения и профессионального мастерства.

Ключевые слова

Статус Хорезма, традиционные музыкальные наследия и культурные наследия.

Abstract

In this article, the methodical development of the traditional musical instrument in music and art schools, professional skills and their formation factors, scientific training and experience training and professional skills are discussed.

Key words

The status of Khorezm is traditional musical heritage and cultural heritage.

Musiqa bu turli tuman tovushlar yig‘indisi natijasida badiiy obraz aks ettirib, g‘oyaviy emotsional mazmunga ega bo‘lgan san‘atning bir turidir. Albatta musiqadagi ohanglar inson ongi in‘ikosi deb ta‘riflasak olamni tasavvur etishda musiqa ham nafislik, go‘zallik hissiyotlarini tarqatishda o‘z ta‘sir doirasiga ega. Aks holda butun mavjudotlar ichida eng oliy hilqat bo‘lgan insongina qo‘li gul, tafakkur va ma‘naviyat egasi, ijod degan ne‘matdan bahramanddir. Bu o‘z navbatida inson kundalik hayotiga musiqaning kirib borishi, hamda musiqiy cholg‘ularga bo‘lgan ehtiyoj insoniyat manaviyatining bir bo‘lagiga aylandi. Dunyodagi xalqlar turli millat, elat, irqidan qat‘iy nazar o‘z hayoti, ma‘naviyati va an‘anasi asoslariga tayanadi, Milliy qadriyatlar ta‘siri ostida rivojlanadi.

O‘zbek xalqining barcha udum va qadriyatlari, milliy an‘analarini aks ettiruvchi dutor xalqimizning sevimli cholg‘ularidan biridir. Bu cholg‘u ijrochilik imkoniyatlari yillar davomida shakllanganligi, ijro uslublarining turli tuman bo‘lishi xalq orasida eng go‘zal ijro namunalari yuzaga kelishiga turtki bo‘ldi. Hozirgi kunda O‘zbekiston o‘zining siyosiy qarashlari, iqtisodiy va madaniy yutuqlari, amalga oshirilayotgan yangi bunyodkorlik ishlari, hamda mamlakatimizda o‘tkazilayotgan musiqiy va teatr festivallari, sanoat ko‘rgazmalari, ekologik tadbirlar, sport musobaqalarining salohiyati butun dunyoning e‘tiborini o‘ziga jalb etmoqda.

Tarixdan O‘zbekiston o‘zining Samarqand, Buxoro, Xiva, Termiz, Shahrisabz kabi shaharlari bilan nafaqat Markaziy Osiyoda, balki butun dunyoga ilm fan, madaniyat, ma‘rifat markazlari sifatida dong taratib kelgan. Shu o‘rinda aytish joizki, madaniyatni rivojlantirishda faqatgina musiqa sohasida SHarq taronalari, Zamonaviy musiqa, Simfonik musiqa, Milliy cholgular, Kelajak ovozi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ta‘sis etilgan “Nihol” mukofoti, Respublika yosh ijrochilari ko‘rik tanlovlari va imtiyozli yoshlarni izlanishga, yangiliklar yaratishga, hozirgi zamon talablariga to‘g‘ri keladigan ijodiy ishlarni amalga oshirishga undaydi. Jahon musiqa merosining ulkan sarchashmasi hisoblangan Shashmaqomning YUNESKO tomonidan “Insoniyatning nomoddiy madaniy merosi” deb e‘tirof etilishi katta tarixiy voqea bo‘lganligi ham bejiz emas. Ota-bobolarimizdan qolgan mo‘tabar musiqiy merosni nafaqat asrab avaylash, balki kelasi avlodlarga tortiq qilish ham bizning bugungi kundagi vazifamizdir. O‘zbek xalqi qadimdan o‘zining boy milliy madaniy qadriyatlarini, urf odatlari, jahon madaniyatiga qo‘shgan ulkan hissasi bilan alohida o‘rin egallashi, jahon madaniyati va san‘ati taraqqiyotida turkiy xalqlar, jumladan, o‘zbek xalqi tomonidan yaratilgan boy musiqiy merosning butunjahon hamjamiyati tomonidan e‘tirof qilinishining o‘zi o‘tmish tariximiz, bugungi hayotimizga berilgan munosib bahodir. Shu nuqtai nazardan o‘zbek xalqining mumtoz musiqiy yodgorliklaridan biri bo‘lgan Xorazm dutor maqomlarini tadqiq etish, muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu mulkni tadqiq qilib, amaliyotda qo‘llash muhim vazifa bo‘libgina qolmay, biz uchun kechiktirib bo‘lmaydigan ishlardan biri desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov 2002-yil 23-mayda Hofiz Ollonazarovga maktub yo‘llab, o‘tmishda Xorazm musiqashunoslari tomonidan yaratilgan qo‘lyozma maqom kitobini avaylab, saqlab kelganligi uchun minnatdorchilik bildirgan edilar. So‘ngra bu nodir topilma O‘zbekiston Respublikasi prezidentining topshirig‘iga binoan O‘zbekiston davlat Konservatoriyasiga tantanali ravishda topshirildi. Endilikda ushbu noyob manba mazkur dargohning muzeyida saqlanmoqda. Davlat rahbarimizning musiqiy merosimizga bo‘lgan g‘amxo‘rliqi san‘at ahlining qalbida saqlanib kelayotgan ezgu, orzu umidlarini alanga oldirib, muazzam maqom mulkini obod qilish, undan milliy qadriyat sifatida xalqimizning ma‘naviy manfaatlari yo‘lida foydalanish borasida tariximizda yangi davr paydo bo‘ldi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Xorazmda musiqa va ijrochilik san‘atlarining saroydan tashqarida kengroq doirada, to‘y-hashamlar, bazmu ziyofatlarda el sozandalari ijrosida keng tarqalgan turlari orasida Dutor maqomlari alohida o‘rin tutadi. Ta‘kidlash lozimki, dutor maqomlarining nazariy va tarixiy muammolari musiqashunoslik sohasida deyarli o‘rganilgan emas. vaholanki, Xorazm maqomlari hozirgi davrgacha mahalliy musiqa madaniyati, shuningdek O‘zbekiston san‘atida nihoyatda baland mavqega ega. Xorazm maqomlarini o‘zbek xalqining ma‘naviyati, madaniyatida o‘rni beqiyos.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.maqom cholg‘usining o‘rni va ahamiyati.S.Davronova.Buoro-Navoiy 2019. Metodologik tavsiya uslubiy qo‘llanmasi.
- 2.Xalq cholg‘ularida ijrochilik.U.Yunusov.Musiqa nashriyoti.Toshkent 2021.

3.M.Ziyayeva Dutor.T.Musiqqa2011

Internet malumotlari.

Axborot resurs markazi.<http;www.asse.uz>